

Nodira Xolikova

JADID ADABIYOTI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

NODIRA XOLIKOVA

JADID ADABIYOTI

O'QUV QO'LLANMA

**ZEBO PRINT
Toshkent - 2025**

UO'K 82'04;37.0

KBK 84(5uzb)

X-24

N.Xolikova. *Jadid adabiyoti. O'quv qo'llanma.* – T.: "ZEBO PRINT", 2025. 314 b.

"Jadid adabiyoti" o'quv qo'llanmasi mazkur fanning o'quv va ishchi dasturi asosida yaratilgan. Darslikda jadid adabiyoti fanining mohiyati, tadqiqi va tadbiqi, mavjud adabiy oqim va janrlarining vujudga kelish tarixi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, jadid badiiy tafakkurining taraqqiy etish tadriji ma'lum asarlar tahlili va talqini vositasida bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma filologiya yo'nalishi bakalavriat va magistr talabalariga mo'ljallangan bo'lib, ta'limning ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar hamda mustaqil shakllarining mavzulari mohiyatini o'z ichida aks ettirgan.

O'quv qo'llanmadan pedagogika-psixologiya va gumanitar fanlar fakultetlari talabalari, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar

Sh.Amonov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

A.R.Davlatova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 9 iyuldaggi 258-soni buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-581-61-8

© N.Xolikova., 2025

© "Zebo print"., 2025

KIRISH

Jadid adabiyoti fanini o'rganish va o'quvchilarga yetkazish orqali ajdodlarimizning asriy orzusi hisoblangan istiqlol, erk, ozodlik, shuningdek, Vatan, millat kabi tushunchalar yosh avlod qalbida va ongida shakllantiriladi. Yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, XX asr adabiyotini chuqur o'rganish uchun yo'l ochildi. XX asr boshlari o'zbek adabiyotining yangilanish tamoyillarini, undagi janr, vazn masalalarini, ramziylik va g'oyaviy konsepsiyalarini o'rganish yuzasidan bir qator tadqiqot ishlari olib borildi. Shu bois jadid namoyandalarining ijodiy qarashlarini tadrijiy va qiyosiy tarzda o'rganish, ilmiy-amaliy jihatdan foydalanish bugungi kun uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF – 5850-son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 30-sentabrdagi “Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”, 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbanlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagи PQ-2995-son “Qadimi yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-son “Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi va Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni

amalga oshirishda ushbu ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek va dunyo olimlari jadidchilik hamda jadid adabiyotini u shakllangan va takomilga erishgan XX asr avvalidanoq tadqiq qila boshlagan. Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurahmon Sa'diy, Olim Sharafiddinov, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Ahmad Shukriy singari o'zbek, Ismoilbek Gasprali, Zarif Bashiriy, Jalil Mamatqulizoda kabi qardosh adabiyotshunoslar, shuningdek, rus olimlaridan V.Bartold, A.Samoylovich va A.Pyaskovskiy tadqiqotlari shular jumlasidan. Jadid adabiyoti namoyandalari qatorida jadid adabiyoti munaqqidlarining fikr-qarashlari, tanqid va imnosabatlari ayni kunda muhim ahamiyatga molik. Aynan shu jihatdan "Jadid adabiyoti" o'quv qo'llanmasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1-mavzu. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillari

XX asr ilk choragidagi ijtimoiy-siyosiy voqelik, jumladan, Birinchi jahon urushi asoratlari, 1916 yil voqealari, 1917 yilgi Fevral inqilobi hamda Oktabr to‘ntarishi Turkiston xalqi hayotiga ham ta’sir etmay qolmadi. Mazkur voqealari-hodisalar millat tarixida o‘ziga xos o‘zgarishlar yasadi.

Tarix guvohki, xalqimiz yunon, arab, mo‘g‘ul, eron va rus bosqinlari oqibatida nihoyatda og‘ir kunlar, bir-biridan musibatli voqealari-hodisalarini boshdan kechirgan. Lekin har bir bosqinchilik, qirg‘in-qabohat el-yurtning sabr-bardoshi, irodasi va matonatini go‘yo sinovdan o‘tkazgan. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tanazzul to‘siqlarini yengib o‘tgan xalq yana qaddini rostlab, taraqqiyot sari dadil odim tashlagan. Bu holat va harakat o‘z-o‘zidan yuzaga chiqmagan, albatta. Eng qiyin damlarda ezilgan va xo‘rlangan odamlarga, avvalo, adabiyot, tarix, din, ma’rifat yordam qo‘lini cho‘zgan. Bularning har biri o‘z imkoniyati, imtiyoziga yarasha ommani ojizlik, mutelik, qashshoqlik, noumidlik hamda fikrsizlikdan qutqazishga madad bergen. Adabiyot esa mazlum xalqning ko‘ngliga doimo yaqin bo‘lgan, uning qalbini qurshagan g‘am-alam, dard va hasratlarni jonli tarzda ifodalash uchun faollik ko‘rsatgan. Zero, millat erki va ozodligiga daxldor biror harakat yoki hodisa yo‘qki, uning ifodasidan adabiyot o‘zini chetga olgan bo‘lsin. Bu fikr 1916 yilgi milliy ozodlik qo‘zg‘oloniga ham bevosita tegishlidir. Millatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan bu qo‘zg‘olon Birinchi jahon urushi davriga to‘g‘ri keldi. Uni yuzaga keltirgan sabablar esa, ochlik, qahatchilik, zulmu sitam, asosiysi, Birinchi jahon urushining xalq turmushini izdan chiqargani edi.

XX asr boshida imperialistik davlatlar dunyoni qaytadan bo‘lib olish siyosatini yurg‘izdi. Ikki harbiy blok – Germaniya, Avstro-Vengriya, Turkiya, Bolgariya bilan Fransiya, Angliya, Rossiya (Antanta) o‘rtasidagi nizolar natijasi o‘laroq 1914 yilning yozida Birinchi jahon urushi boshlandi. Qariyb to‘rt yil davom etgan bu urushda 33 davlat 1,5 milliard aholisi bilan ishtirok etdi.

Yangi-yangi yarlarni zabit etish maqsadini ko'zlagan chor Rossiyasi ham bevosita urushga tortilgan edi.

1914-1917 yillardagi Birinchi jahon urushi ko'p xalqlarga bitmas-tuganmas kulfat keltirdi. Ijtimoiy va milliy buhron yanada kuchaydi. Ingliz-farang mablag'lariga qaram bo'lgan chor Rossiyasi bu urushda Antanta tomonida turib kurashdi. Birinchi jahon urushida Rossiyaning ishtirok etishi va talafotga uchrashi, o'z navbatida, unga tobe bo'lgan Turkiston o'lkasi mahalliy aholisi hayotining, turmush sharoitining og'irlashuviga olib keldi. Chunki urushning hamma qiyinchiliklari aynan mustamlaka xalq zimmasiga tushishi aniq edi. Urush sababli sodir bo'lgan voqealar xalq boshiga ko'p ofat yog'dirdi. Mustamlaka siyosati va cheksiz zulm, ochlik va qahatchilik siyosi, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni keskinlashtirib yubordi. O'lkada g'alla yetishtirish hamda chovachilik kundan-kun orqaga keta bordi. Rossiyadan g'alla keltirish ham juda kamayib ketdi. Rus g'allasiqa ishonib, zahmat bilan paxta yetishtirgan o'zbek dehqoni na nondan, na "paxta"lik ust-boshdan yolchidi.

Shoir Hoshimjon Solih o'g'li Hayratiy(1871-1964) Birinchi jahon urushi keltirgan kulfatlarga qarshi keskin noroziligini ifodalovchi, "Qimmatchilik", "Mardikor oldi" she'rlarini yozgan. Jumladan, "Qimmatchilik" she'rida xalqning nochor ahvoli quyidagicha tasvirlanadi:

*Har bir eshikda soil besh-olti, balki o'ndir,
Bo 'ldi ulusning yarmi ovqat uchun gadolar.
Soilga bersang avval non yoki boshqa narsa,
Non olmas erdi pul deb, aylardi iddaolar.
Hozirda bersangiz pul, ayturki: "Parcha non ber,
Nonsiz vujudim o 'ldi monandi kahrabolar".*

"Soyillik" yangi mavzu emas. Gulxaniy she'riyatidan olingan mana bu bayt ham fikrimizni tasdiqlaydi:

*Hazratim, ochlikdan o 'ldim, yegani non ber menga,
Kofir o 'lg 'ayman, agar desamki, bahmon ber menga!
Ko'rini turibdiki, bu mavzu o'zbek adabiyotida mavjud edi.*

Biroq farq shundaki, Gulxaniy g‘azali avtobiografik xarakter kasb etgan, chunki uning bu she‘ri qattiq muhtojlikda o‘tgan kezlarining mahsuli. Hayratiyning “Qimmatchilik” she‘rida esa Birinchi jahon urushi davrida xalq boshidan kechgan og‘ir kunlar, yanada aniqrog‘i, qahatchilik tasvirlangan. “Ulusning yarmi ovqat uchun gadolar” bo‘lganini tasavvur etishning o‘ziyoq fojianing naqadar chuqur bo‘lganini ko‘rsatadi. Bunday tasvir boshqa ijodkorlar asarlarida ham uchraydi. Zavqiy yozadi:

*Qahatlik bo‘ldi bu Farg‘onamizda,
Topilmas parcha non vayronamizda...
...Olib qochg‘ay savatdin dasta nonlar,
Va yo chaynar solib og‘ziga donlar.*

Shoirning bu so‘zлari ayni haqiqat edi. Chunonchi, 1916 yili Farg‘ona viloyati g‘alla hosilining miqdori 12-14 mln. pudga kamaygan edi.

*Bu yanglig‘ xor bo‘lg‘aymu odamzod,
Agar qodir esangkim ayla imdod.*

“Imdod” – madad demakdir. Shoir hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantiradi. Zavqiyning mahorati shundaki, xalqning o‘sha zamondagi fojiali turmush tarzini yorqin badiiy bo‘yoqlar orqali ifodalaydi. Natijada, qahatchilik iztiroblarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida butun fojiasi bilan gavdalantira oladi.

*Qayda ketti e’tiborlar, vah muruvvatlar darig‘,
Qolmadi hech bir kishida mehru shafqatlar darig‘,* – deya Zavqiyning yuqoridagi so‘zlarini tasdiqlagandek bo‘ladi toshkentlik shoir Tavallo. To‘lagan Xo‘jamyorov – Tavallo 1916 yilgi qahatchilik munosabati bilan “Darig”(afsus) radifli g‘azal yozgan. G‘azal “Turkiston viloyati gazeti”ning o‘sha yil 13 noyabr sonida chop etilgan. Ushbu g‘azalning 17 bayti ham shoir Tavallo o‘zi shohidi bo‘lgan ochlik, qahatchilik tasviriga bag‘ishlangan bo‘lib, she‘rda voqelik tiniq badiiy bo‘yoqlar vositasida ifodalangan.

*Boylar oldi g‘alla arzon ombor to ‘ldurub,
Kambag‘allardin chiqar chang, qilsa hasratlar, darig‘.
Necha miskin uylarida yo‘q o‘luk, lekin azo,*

Erta-kech boylarda ko 'rsang, ayshu ishratlar, darig'.

"Noilojlikda qolmoq" ma'nosini beruvchi "hasratidan chang chiqmoq" turg'un birikmasi xalq jonli tilida keng qo'llaniladi. Shoир ana shu ayanchli holni to'laqonli tasvirlash uchun kambag'allar bilan boylar hayotini muqoyasa qiladi. Ko'plab fojialarning o'zagini tashkil etgan tengsizlik,adolatsizlik, haqsizlik xalqning noroziligiga, isyoniga sabab bo'lgan edi. Shoир kambag'al xalq tarafini olgani holda, butun xalqqa, millatga qarata quyidagi so'zlarni aytadi:

*Kambag'al o 'ldum deganda, boqmayur hech kim anga,
Bu na millat, bu na jur'at, bu na himmatlar darig'.*

Shoirning hasrat va nadomat bilan yo'g'rilgan bu so'zlari o'z millatini bekamu-ko'st ko'rish ishtiyoqidan tug'ilganini payqash qiyin emas.

Prof. H.Ziyoyevning yozishicha, urush sababli paxtaning bozor narxi ko'tarildi. Bundan paxtakorlar bir muncha foya ko'rishi mumkin edi. Lekin chor hukumi to'qimachilik sanoati egalarining talabiga ko'ra paxta savdosini nazarat ostiga olib, uning bozor bahosini 30-31 so'mdan 24,5 so'mga tushirdi. Bu dehqonlarga ziyon keltirgan bo'lsa, kapitalistlarning cho'ntagini to'ldirdi. Paxta, ipak va boshqa xilma-xil noz-ne'matlar Rossiyaga tobora ko'p miqdorda olib ketilayotgan bo'lsa-da, rus kapitalistlari Turkistonda arzon bahoda qo'lga kiritilgan paxtadan tayyorlangan gazlama va kiyim-boshlarni qimmat narxda paxtakorlarning o'ziga sotishni davom ettirdilar. Abdulla Avloniyning kuyunib: "Biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar dumba sotub, chandir chaynaymiz. Qaymoq berub, sut oshaymiz, non o'miga kesak tishlaymiz!" degan so'zlari ana shu iztirobli hol natijasi edi. Buning ustiga, mahalliy boy-amaldorlarning ham mehnatkash xalq ustidan zulmi haddan oshdi. Og'ir soliqlar, qarzdorlik va qahatchilik dehqonlarning yer va mol-mulkdan mahrum bo'lishiga olib keldi. Buning natijasida mardikorlar va chorakorlar soni ko'payib ketdi.

*Uch yil erurki, ketti xaloyiqni rohati,
Hech bir kishini qolmadi bir dam farog'ati,*

*Ham zuhd elini qolmadi lazzati toati,
Ortuqcha bo'ldi bizlara bu dahrning ofati,
Ko'zlarda qildi yoshni qizil qon muhoraba.*

Sidqiy Xondayliqiy “Muhoraba daf'i uchun munojot”she'rida Birinchi jahon urushi davrida (“uch yildirki”) xalqning qon qaqqshagani, elning rohatu farog'ati qolmagani haqida yozar ekan, “Ham zuhd elini qolmadi lazzati toati” deya ta'kidlaydi. Toatdan maqsad – ruhiy tozarish, ko'ngil shavqi.

Muhoraba bois, avvalo, xotin-qizlarning ahvoli og'irlashdi. Biroq qaddi egilsa-da, ularning irodasi, shijoati bukilmadi. Ular erkaklar bilan bir safda turib kurashdi va she'rlarida “yov ziddig'a” chiqishga da'vat etdi:

*Jarchi bo'l, Anbar, xotunlar birla chiq yov ziddig'a!
Bu nechuk mudhish baloyu obi to'fondur urush.*

Shoira Anbar Otin “Urush” radifli she'rini mana shunday misralar bilan yakunlaydi. Ayolning yovga qarshi chiqishi – eng og'ir hollardagina ro'y berishi mumkin bo'lgan hol. Bu xalq boshiga tushgan musibatning nechog'lik og'ir bo'lGANI tasdig'idir. Anbar Otin mazkur she'ri orqali To'maris singari jasur ayollarning, “er qizlar”ning (Shavkat Rahmon ta'biri) hali Turonzaminda barhayot ekanini uqtiradi. Yana bir she'rida u, kurashdan asl maqsad «tinchlik»ka erishish ekanini quyidagicha ta'kidlaydi:

*Anbaro, ul bahri Ummondin ariq och dunyog'a!
Tinchlik bahrin ketursin suv kabi ul jo'yi sulh.*

Dunyoga tinchlik degan totli suvi bor ummondan ariq ochish kabi ezgu niyatli shoiraning e'tiroficha, tinchlikning birinchi talabi “jo'yi sulh” – islohotlar arig'ini ochmoqdir. Darhaqiqat, urush, avvalo, tinchlik, erk va ozodlik uchun kurash tuyg'usini, asosiysi, vatanparvarlik hissini kuchaytirdi.

Urush mavzui, nafaqat o'zbek she'riyatida, qardosh tatar, ozarbayjon adabiyotlarida ham keng ko'lamda aks etdi. Binobarin, bu ikkala xalq vakillari ham urushda bevosita ishtirok etdi. Urush boshlangach, tatar yozuvchi va shoirlarining ko'pchiligi askarlikka olingan edi. “Ong” jurnalida 1915 yil oxirida adiblardan

A.Sungatiy, M.Ali, A.Xaris, F.Ibrohimov, S.Rahmonquliy, Z.Nurkin, M.Uqmasiy urushda ishtirok etgani ta'kidlanadi.

Birinchi jahon urushi iztiroblari ifodalangan asarlar orasida tatar shoiri M.G‘afuriyning she’rlari ta’sirchanligi bilan alohida ajralib turadi. Shoirning “Fitrat zamoni”, “Qiyomat”, “Yig‘la”, “So‘g‘ushda xabarsiz yo‘qolgan inimga”, “Ko‘ngilsiz bayram”, “Ozodlik sharafiga”, “Non”, “Bitsin so‘g‘ush”, “Ajdaho”, “Hurriyatga qarshi turuvchilarga”kabi she’rlari bu fikrni tasdiqlaydi. G‘afuriy kechinmalari hasrat va nadomat bilan yo‘g‘rilgan. Shoir urushni rad etib, tinchlikni targ‘ib qilar ekan, millatni erk va ozodlik uchun kurashga chorlaydi:

*Sen shunday qullikda yursang, dunyo keng bo‘lmas senga,
Barcha ishlardin oldin bosh bo‘l, inim, o‘z erkinga...*

Yosh talantli tatar shoirlaridan Shayxzoda Babichning quyidagi misralari G‘afuriy she’rlariga hamohang:

*Chin erkli olg‘a kunlar uchun,
Kurashib o‘tkaz, qisqa umringni!*

M.G‘afuriy, Shayxzoda Babich yoxud Anbar Otin va Sidqiy Xondayliqiyning yuqorida keltirilgan she’rlari tahlili shundan dalolat beradiki, bu xalqlarning qismatida bir mushtaraklik mavjud edi. Shu bois ularning barcha “da’vat”lari, avvalo, o‘zlikni, o‘z Vatanini, o‘z erkini saqlashga qaratilgan edi.

Mutaxassislar fikricha, Birinchi jahon urushi arafasida bokulik ba’zi millioner va ruhoniylar chor hukumatiga sadoqatini ko‘rsatish maqsadida xususiy musulmon diviziyasini tashkil qilgan. Ushbu diviziya qatnashchisi ozarbayjon shoiri Muhammad Hodiu ch yil mobaynida qonli janggohlarda ishtirok etib, muhoraba maydoni taassurotlarini “Alvohi intiboh yoxud insonlarning tarixiy fojalari” nomli klassik manzumasida, “Maydoni harb xotiralarimdan”, “Yulduzli bir kechada muhoraba tomoshasi”, “Badbaxt ko‘r chojug” (Karpat xotiralaridan), “G‘urbat ellarda yodi vatan” kabi bir qator she’rlarida aks ettirgan edi. Darhaqiqat, ozarbayjon shoirlaridan boshqa hech birining ijodida muhoraba

– urush mavzui Muhammad Hodи she’rlaridagichalik teran talqin etilgan emas. Shoir urushning mohiyatini, uning imperialistik xususiyatini ko’rsatib, falsafiy mushohada yuritadi va o‘z-o‘ziga dunyoning sirlari, yer yuzidagi qatlu g‘orat haqida keskin savollar qo‘yib, oh-faryod chekadi. “Alvohi intiboh”ning ilk sahifasi Stanislovo shahrida yaradorlarning “faryod va afg‘onlarini tinglab” degan qayd bilan berilgan. U shunday manzara bilan boshlanadi: butun koinot o‘t va qon ichida. Dunyo yonmoqda, dunyo faryod chekmoqda. Yer yuzida musibatlarning haddi-hududi yo‘q. Har tarafdan nola, shikoyat, ohu afg‘on tovushi keladi. Shoir jahonni bir “qonli ovloq”, odamlarni esa ovchi va jallod qiyofasida ko‘radi. Muhammad Hodи, inson naqadar buyuk, sharaflı bo‘lsa, shu qadar tuban va badbaxt, undan yovuzroq maxluq yo‘q, degan xulosaga keladi. Shoir fikricha, baxtsizlik odamzodning zotida, qonidadir (chunki u musibat tuprog‘idan yo‘g‘rilgan).

Bashar! Badbaxtsan, giryon, parishon bir hayoting vor,

Musibat tuprog‘indan yo‘g‘rilan badbaxt zoting vor,

Aziyatdan yopilmish bir hayoti besaboting vor,

Tavorixing ichinda ganli-ganli fojeoting vor...

Shoir nazdida bu kabi urushlar, xunrezliklar faqat bugun paydo bo‘lgan emas. Bashariyat tarixi “qonlar-la boshlanmish”. Buning sababini esa insonlarning noqobilligidan, isyonu tug‘yonidan izlamoq kerak. Quyidagi misralar shu haqda:

Nasl, go ‘rdungmu tarixi bashar ganlar-la boshlanmish,

Avat, ganlar-la, afg‘anlar-la, xusranlar-la boshlanmish,

O gan tarixi-da nagabil insanlar-la boshlanmish,

Hayotin ilk dovri ishda isyanlar-la boshlanmish,

Avat, gan to ‘kmak ila, hamda tug ‘yanlar-la boshlanmish,

Yerin-da o ‘z hayoti o ‘di-la, vulkanlar-la boshlanmish,

Hayoti ahli arzin ohu afg‘onlar-la boshlanmish,

Bakishlar ko ‘lkali, yuzlar butun nashad shaklinda,

Bu motamgahi kim go ‘rmush sururabad shaklinda.

Aslida qotillik va xunrezlik tarixi Odam Ato davriga borib bog‘lanadi. Rivoyat qilinishicha, uning katta o‘g‘li Qobil ukasi

Hobilni o'ldirgandi. Chunki Odam bolalari biri qiz, ikkinchisi o'g'il, ya'ni egizak tug'ardilar. Qobil va singlisi Aqlima jannatda tavallud topgan edilar. Qobil, otasi jannatdan quvilgandan so'ng tug'ilgan egizaklardan biri, ya'ni Hobilning singlisi Labudaga uylanishga majbur edi. Ammo u Aqlimani olishni istardi. Qobil cho'ponlik, Hobil esa dehqonchilik qilardi. Otasi yo'q bir paytda Qobil, Iblisning bir qush boshini kesib yo'l ko'rsatishi bois ukasini o'ldiradi. Hazrati Odam o'g'lining ko'milgan jasadini topgach, "Butun qotillar sening urug'ingdan chiqsin", deya Qobilni qarg'aydi. Shu zaylda Qobil ilk qotil va qotillarning rahnamosi bo'ladi. Shuning uchun insoniyat keyinchalik ham Iblisning qutqusidan va qon to'kishdan hech qachon o'zini to'xtata olmagan. Asrlar o'tgan sayin xunrezlik va qirg'in-barot urushlar ko'paysa ko'payganki, kamaymagan. Zohiriy quvonch zamirida botiniy noshodlik yashiringanining sababi ana shunda. Tatar adibi A.Xaris ham "So'g'ush" she'rida kishilik dunyosi ustiga kelgan urushlarning o'zagi ibtidodagi xunrezlikda, deb ishorat qilgan. Umuman, nafs va hirs bosh ko'targanda insoniyat doimo notinchlik, ittifoqsizlik, tahlika girdobida qolgan. Sidqiy Xondayliqiy kabi shoirlar:

*"Zamona sadosig'a soling qulog,
Ki har dam degay: Ittifoq, Ittifoq!" –*

deb qanchalik bong urmasin, ularning gaplari deyarli inobatga olinmagan. Urush – bu asosan oddiy, mazlum xalq boshiga yog'ilgan balo-qazo, kulfat va musibat demak. Birinchi jahon urushida Rusiya armiyasi juda ko'p talafot ko'rib, asosiy kuchlar frontga safarbar etilgani bois ularning o'rmini to'ldirish uchun Nikolay hukumatiga ishchi kuchi zarur bo'lib qolgan edi. Bu kuchni mustamlaka o'lkalardan to'plash maqsadida imperatorning 1916 yil 25 iyun kungi farmoniga ko'ra Turkiston, Sibir va Kavkaz xalqining 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lган barcha erkaklariga majburiy safarbarlik e'lon qilinadi.

Ochlik, qahatchilik, benihoya jabr-zulm, buning ustiga mardikorlikka olish haqidagi farmon xalqning noroziligi va nafratini kuchaytirib yubordi. 1916 yilning yozida boshlangan

xalq qo‘zg‘oloni shu darajada keng quloch yoydiki, Turkistonning deyarli barcha shahar va qishloqlarini qamrab oldi. Unda o‘zbek, tojik, qozoq, turkman, qirg‘iz, qoraqalpoq va uyg‘urlar faol qatnashdi. Qo‘zg‘olon aks-sadosi butun Rossiya imperiyasi bo‘ylab tarqaldi.

13 iyuldaggi Jizzax qo‘zg‘oloni shu qadar miqyos kasb etadiki, tarixiy manbalarda yozilishicha, shahar to‘pga tutilib, butunlay yondirib tashlangan. Mingdan ortiq kishi qamoqqa olinib, ularning ko‘pi qatl etilgan va surgun qilingan. To‘pga tutilgan shahar, vayron bo‘lgan xonardonlar, shafqatsiz zulm va dahshatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan otashin shoir Hamid Olimjon o‘shanda 7 yashar bola edi. U keyinchalik o‘sha mudhish kun va tunlarni xotirlab bunday yozgan edi :

*Men bir qora tunda tug‘ildim,
Tug‘ildimu shu on bo‘g‘ildim.
Men tug‘ilib ko‘z ochgan dunyo
Xarob edi, buzg‘un, benavo,
Vayronada izillardi yel,
Menga qondosh, jondosh bo‘lgan el
Gado edi, qashshoq edi, xor –
Qalbi to‘la nafrat, alam, zor.*

Lekin gado, qashshoq, xor elning qalbidagi “nafrat, alam, zor” nimani ham bartaraf eta olardi? Shu bois chor hukumati mardikorlikka majburiy safarbarlik ishlarini boshlab yuboradi.

Eng ayanchlisi, xalq boshiga tushgan bu ko‘rguliklar yetmaganidek, mahalliy boy-amaldorlar ham o‘z munofiqlik va razilliklarini namoyish etishgan. 1916 yil qo‘zg‘olonini keltirib chiqargan sabablarni aniqlash maqsadida Turkistonga kelgan Rossiya Davlat Dumasi vakili deputat A.F.Kerenskiy bu xususda quyidagilarni ma‘lum qilgan: “Ma’murlar odamlarning yoshini cho‘ntaklariga solingan pulga qarab aniqlashgan. Men o‘z ko‘zim bilan ko‘rgan 60 yoshli qariya ro‘yxatga 30 yoshli deb yozilgan, chunki 300 so‘m to‘lashga qurbi yetmagan. 25-30 yoshli yigitcha esa boyvuchchaligi tufayli 50 yosh deb qayd etilgan”. Deputat

Ja'farovning keltirishicha, ba'zi joylarda mardikorlikdan ozod qilish uchun qat'iy narx (taksa): 500-1000 rubl, deb belgilangan. Bunday voqealarning realistik ifodasini Abdurahmon hoji Akbarovning mana bu misralaridan ham bilish mumkin:

*Na uchunkim, boylar o'g'lin qoldirub,
Ming so'mga kambag'al yollab oldirub,
Onalarin yurak bag'rin yondirub,
Bir Olloga topshirdum men sizlarni.*

Qo'zg'olon bostirilgach, o'lkada bir qator keskin choralar ko'rilgan: "Avvalo, mahalliy aholiga ma'muriyat ruxsatisiz temir yo'lidan foydalanish taqiqlangan. Bu ham kamlik qilib, barcha rus ma'murlari va ofitserlariga mahalliy aholi ta'zim qilishi lozim va majburiyligi haqida maxsus farmon qabul qilingan... Agar sart ko'chaning narigi betidagi yoki orqasidagi ma'murni ko'rmay qolib, ta'zim qilmasa yoki sotuvchi savdo bilan band bo'lib, peshtaxta ortidan darhol yugurib chiqmasa, otliq kishi darhol otidan tushib, ta'zim etmasa, ayamay savalangan".

Ana shu xorlik, tahqir, azob va uqubatlar xalqning dilidan tiliga ko'chib, she'r va qo'shiqlarga aylandi. 1916 yilda front orqasidagi qora ishlar uchun mardikor olinishi munosabati bilan "Poyezdingni jildirgan...", "Qorda qarag'ay kesganman...", "Nikolay – qon jalloid", "Saidahmad, toming baland" singari qo'shiqlar butun Turkistonga yoyildi.

*Dvinskka yo'l bo'lsin,
Qarag'ayzorlaring kul bo'lsin.
Yigitlarni qiyanagan
Nikolay zolim yo'q bo'lsin.*

Zulm va zo'ravonlik qanchalik shiddatli tus olmasin, xalq o'z holati, ichki haqiqatlarini u yoki bu zaylda so'z orqali aks ettirish yo'lini topadi. Bunday paytda so'z va fikrning ma'no qirralari o'z-o'zidan kengayib, she'rdan hatto qarg'ish ohanglari ham o'rin oladi. "Qarag'ayzorlaring kul bo'lsin!", "Nikolay zolim yo'q bo'lsin!" – aslida bular qarg'ish mazmunidagi gaplar. Shuning uchun ham ular uquvchini kulfat va fojianing nechog'lik og'irligiga to'la inontiradi.

Shu ma'noda bunday she'rlarni biz o'ziga xos "tarixiy-badiiy hujjat" deb qarashimiz, tarixiy voqelik mohiyati ularda haqqoniy aksini topganligini e'tiborga olishimiz zarur. Mana bu misralar Jizzaxda yuz bergan qirg'in haqida aniq tasavvur hosil qilishi bilan ahamiyatlidir:

*Eshik oldi o'yildi,
Jizzax xalqi so'yildi.
Ota-onang mehribon,
Ikki ko'zi o'yildi.*

Chindan ham qo'zg'oloning ayovsiz bostirilishi oqibatida Jizzax eli boshiga adoqsiz kulfatlar yog'ilgan. Jazo otryadining shafqatsizligi bois o'z farzandlaridan, oila a'zolaridan ajralganlar juda ko'p bo'lgan. Farzandidan, jigargo'shasidan ayrilgan ota-onsa iztirobi boshqa bir termada badiiylashtirilib ifodalangan:

*Sandiq ustida bo'xcha,
Yigitlar guli g'uncha.
O'lgor podsho qo'ymaydi
Gul bo'lib ochilguncha.*

1916 yil voqealariga bag'ishlab folklor yo'lida yaratilgan qo'shiqlarning o'ziga xos jihat shundaki, bunda yozma adabiyotdan farqli o'laroq, oq podshoh va uning qo'l ostidagi ma'muriyat, mardikorlikka olish haqidagi adolatsizlik hujjati bo'lgan farmon, umuman, nohaqlik, tengsizlik, zulmkorlik ayovsiz qoralanadi. Misradan-misraga norozilik, murosasizlik kayfiyati kuchayib boradi.

*Saidahmad, toming baland,
Tomingdan ham noming baland.
Yigitlarga qo'l qo'ygan
Padaringga ming la'nat!*

Saidahmad singari ko'plab mahalliy ma'murlar va chor hukumatining g'ayriinsoniy siyosati sababli Rossiyaga jo'natilgan mardikorlar u yerda adadsiz azobu uqubatlarga duch qilindi. Qattiq sovuq, ocharchilik va og'ir mehnat ularning tinka-madorini

quritdi. Mardikorlar haq-huquqlarini talab qilib ish tashlaydilar, o‘z yurtlariga qochadilar, lekin bu harakatlar samara bermaydi. Aksincha, ularga nisbatan ta’qib va tazyiq yanada kuchaytirildi. Ishchilar tomonidan o‘z vatanlariga qaytarishni iltimos qilib, Turkiston general-gubernatoriga yozilgan iltimosnomalar ham javobsiz qoldi. Ammo ularning taqdiri va og‘ir hayoti she‘r va qo‘shiqlarda muhrlanib qolishi albatta muhim hodisa edi. Shu bois 1916 yil voqealari aks etgan asarlarni o‘rganish va tadqiq qilishda qo‘shiqlarning o‘rni beqiyosdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mardikorlik voqealarining qozoq adabiyotida ifodalanishi ancha keng ko‘lamda tadqiq qilingan. “Qozoq adabiyoti tarixi”da mardikorlik mavzuidagi she’riy asarlar “1916 yil poeziyasi” sarlavhasi ostida yoritilgan. Unda 1916 yil voqealariga bag‘ishlangan xalq og‘zaki ijodi namunalari ikki turga bo‘lingan: 1 – lirik qo‘shiqlar; 2 – kuylanuvchi dostonlar.

Ma’lumki, xayrlashuv, sog‘inch, yupatuv mazmunidagi qo‘shiqlar qozoq xalq og‘zaki adabiyotida avvaldan xalqning kayfiyati va holati, turmushi va urf-odatini ifodalab kelgan. Biroq 1916 yil she’riyatida bular yangi sharoitda tarixan boshqacha mohiyat kasb etdi. Jumladan, Jambilning “Podsho amri tarqaldi”, Bo‘ltirikning “El jardan ko‘chganda”, Sartoyning “Tor zamon”, To‘loving “Keng sahroning qo‘shig‘i”, Battol, Husayn, Qarsoq va Eshayrlarning qo‘shiq-dostonlari, “Dametkanning zori”, “Askarning oila a’zolari bilan xayrlashuvi”, “Xayrlashuv”, “Yupatuv”, “Omongeldining o‘limiga” sarlavhali she’rlari bunga misol bo‘la oladi. Shunday qo‘shiqlardan birida boyning o‘rniga yollangan yorini kuzatayotgan kelinchakning quyidagi so‘zları ifodalangan:

*Yetim qolib yosh chog‘ingda,
Nasibangdan qolib sen.
Tepkisidan-da boylarning
Necha yillar qaqshab sen.*

Oqin E.Qandekov ijodiga mansub “Kuchlibotir” qo‘shig‘ining bosh qahramoni Ali Nurxo‘jayev sud jarayonida ijtimoiy-siyosiy

masalalardan so'z ochib, mehnatkash fuqaro nomidan gapiradi, "Otaman, osaman" deb, miltiq tirab, so'roq qilgan sudga javoban:

Faqat gadoy, faqir bolasin olaman, deding.

O'rgatmay, dushman ichiga solaman, deding. –

deb podsho hukumatini ayblaydi. Elga qilingan adolatsizlikni, zulm va talon-torojning cheksizligini, ma'muriyatning qo'rkoqligini so'zlab, "tong otib, kun chiqadi, bizniki ertangi kun" deya, xalqning kelajagiga ishonch bildiradi. Aynan shunday motivdagi, ya'ni ijtimoiy tengsizlikdan norozilik, faqat kambag'allarning farzandi safarbar etilishiga bosh bo'lgan boylardan va ularning kirdikorlaridan norozilik motivi o'zbek xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotida ham juda ko'plab she'rlarda uchraydi.

Qozoq xalq ijodida 1916 yil qo'zg'oloniga bag'ishlangan asarlarning katta bir qismini Omongeldi Imonovning qahramonliklarini ulug'lovchi qo'shiqlar tashkil qiladi. O.Shippinning "Omongeldi", S.Esonboyevning "Er Omongeldi" va N.Ahmetbekovning "Omongeldi dostoni" shunday asarlar sirasiga kiradi.

Ta'kidlash joizki, front hayotini aks ettirgan bir necha qo'shiq-dostonlar ham 1916 yil voqealariga bag'ishlangan xalq adabiyotining mavzu-mundarijasini boyitdi. B.Berdenovning "Priyom", Eshayrning "Zorli zamon paytida", Battolning "Bizga ham kun boqarmi?", J.Janaboyevning "Uzoq yo'lga otlandik", A.Amanjolov va Qoramullayevlarning "Erksiz ketib elimdan" qo'shiqlari ushbu fikrni tasdiqlaydi.

O'sha paytda qozoq yozma adabiyotida yaratilgan asarlar orasida Iso Davkaboyevning "Bekpo'lat" dostoni o'zbek she'riyati tajribalariga bir qadar uyg'unligi bilan ajralib turadi. Dostonda farzandlarning mardikorlikka jo'natalishiga qarshi norozilik ruhi ifodalangan. Bekpo'latning quyidagi so'zlari esa xalqning, qanchadan-qancha ota, onalarning ko'ngil izhori edi:

Men edim tug 'ni tikkan, tona olmayman,

Aytilgan javobimdan qayta olmayman.

Boshimni kerak bo 'lsa kesib tashla,

Senlarga yosh bolani bera olmayman.

Qozoq va o'zbek xalqlarining 1916 yil voqealariga munosabati mushtarakligini ko'rsatuvchi misollar talaygina. Bekpo'lat 1916 yil xalq ko'tarilishining tub sababi birgina iyun farmonining e'lon qilinishida emas, balki chor hukumatining uzoq yillar davomida olib borgan adolatsiz siyosatida, deb biladi. Shoir Bekpo'lat tilidan bunday yozadi:

*Qozoqning yerini ham olding, suvini ham olding,
Birovi oltmish desa, soliq solding.*

*Qozoqdan xohlaganing barin olib,
Olatog' qor tubiga quvib bording.*

Bu so'zlar bejiz aytilmagan. O'sha musibatlari yillarda tog'lar qozoqlarning bir pushti panofiga aylangan edi. Bu fikrni tasdiqlovchi so'zlar boshqa manbalarda ham uchraydi.

Mardikorlik hodisasi o'ziga xos bir sinov ham edi. Unda o'zbek, qozoq va boshqa xalqlarning mardlik va jasurlik, erkparvarlik va vatanparvarlik fazilatlari yana bir bor namoyon bo'ldi. Birinchi jahon urushida turkistonliklar tatarlar va ozarbayjonlar singari urush maydonlarida bevosita ishtirok etmagan bo'lsa-da, undan chetda ham qolgan emas. Bu hodisalar adabiyotda, xususan, she'riyatda o'ziga xos badiiy talqinini topdi.

O'zbek adabiyotshunosligida milliy uyg'onish davrida ijod qilgan shoiralar adabiy merosining xalqimiz adabiy-ma'rifiy va estetik tafakkuri rivojida tutgan o'rni, ularning lirik va epik asarlarida o'sha zamon ayolining ijtimoiy ahvoli, orzu-o'ylari, armonlari talqini yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan¹.

Jadid adabiyoti namoyandalari bo'lgan ayol ijodkorlar she'rlari XX asr boshlaridayoq alohida to'planib nashr etilgan².

¹Кодирова М. Шоира Анбар. – Т., 1991; Мухаммаджонова Л. Маърифатпарвар шоиралар – Дилшод Барно ва Анбар Отиннинг ахлоқий қарашлари. Фалсафа фан. номз...дисс. – Т., 2005; Эшонова С. Кўкон шоиралари: Нисо ва Хоний ижоди. Филол. фан.номз...дисс. – Т., 2006; Давлатова А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол.фан.номз...дисс. – Т., 2011; Пардаева Н. Анбар Отин асарларида муаллиф ижодий нияти ва бадиий-эстетик идеалининг поэтик ифодаси. Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Т., 2022.

² Даврон И. Ашъори нисвон (литотипография). – Т.: И.И. Вайнер типографияси, 1914; Oybek. Erk kuylari. (Nashrga tayyorlovchi O.Hamroyeva). – Т.: Bookmany print,

Mazkur nashrlarda o'sha davr xotin-qizlari obrazi, ayol va jamiyat munosabatlari, shoiralarning milliy ozodlikka doir qarashlari o'ziga xos talqin etilgan.

Sho'rolar zamonida jadid adabiyotini o'rganish butunlay taqiqlangani ma'lum. Natijada bu mavzuda tadqiqotlar yaratish imkoniyati cheklangan. Jadid adabiyoti va unda xotin-qizlar obrazi talqini masalalari mustaqillik davridagina xolis o'rganila boshladi. Jadidshunos Begali Qosimov ilmiy asarlarida qardosh qrim-tatar va o'zbek adabiyoti bu jihatdan alohida ajralib turishi, o'zbek jadid she'riyati, nasri va dramalarida ayol obrazining badiiy takomili yuzasidan konseptual ilmiy qarashlar bildirilgan³. Bundan tashqari, jadid she'riyati, nasri va dramaturgiyasiga doir tadqiqotlarda xotin-qizlar obrazi evolyutsiyasi bo'yicha e'tiborga loyiq ilmiy-nazariy tahlillar amalga oshirilgan⁴. Biroq zikr etilgan tadqiqotlarda jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining tadrijiy takomili maxsus tadqiq qilinmagan.

Turkistonning barcha shahar va qishloqlarini qurshab olgan ochlik, tengsizlik va zulmkorlik Zavqiy, Anbar Otin, Hayratiy, Avloniy, Tavallo kabi ijodkorlarning she'rlarida ta'sirchan ifodalarda aks etdi.

Xalqimiz garchand Birinchi jahon urushida bevosita ishtirok

2024.

³ Косимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002; Уйғонган миллат маърифати. – Т.: Маънавият, 2011; Миллий уйғониш даври адабиёти. 2-жилд. – Т.: Гафур Гулом, 2022.

⁴Кўшжонов М. Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш санъати. – Т.: Фан, 1966; Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Халқ мероси, 1994; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т.: O'zbekiston, 2008; Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи (“Ўтган кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари мисолида). Филол.фан.номз...дисс. – Т., 1994; Норматов У. Қодирий мўъжизаси. – Т.: O'zbekiston, 2010; Жабборов Н. Маърифат надир. – Т.: Маънавият, 2010. Каримов Б. Абдулла Қодирий феномени. – Т.: Info kapital group, 2019; Чўлпон ва танқид. – Т.: Адабиёт жамғармаси, 2004; Ганиев И. Фитрат драмалари поэтикаси ва фитратшунослик. – Бухоро: Дурдана, 2024; Афокова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърий шакллар тараққиёти тамойиллари: Филол.фан.д-ри...дисс. – Т., 2005; Abdirashidov Z. Ismoilbek suygan ayollar // Tafakkur, 2011, 4-сон. – В. 63. Куронов Д. Чўлпон насли поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004; Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997; Matqurbanova D. Cho'iponning "Gavharoy" hikoyasida ayol taqdiri tasviri // O'zbek tili va adabiyoti, 2021, 2-сон. – В. 94-98; Усманова С. Ўзбек ва инглиз романларида аёл руҳияти тасвири (Абдулхамид Чўлпон ва Самуэль Ричардсон ижоди мисолида). Филол.фан.б.фале. док...дисс. – Фаргона, 2021.

etmagan bo'lsa-da, uning moddiy va ma'naviy zarari o'zbek xonadonlarigacha ham yetib keldi. Sobiq Rossiya imperiyasi tarkibidagi turkiy xalqlar ichida urush mavzusi qardosh tatar va ozarbayjon adabiyotlarida keng ko'lamda aks etdi. Bu esa mazkur xalqlar vakillarining urushda bevosita ishtirok etganlari bilan bog'liqidir, albatta. Lekin urush mohiyatini yoritish va qoralashda o'zbek ijodkorlari hech bir xalq adabiyoti vakillaridan ortda qolgani yo'q. Bunda ular diniy-falsafiy mushohada layoqatlarini ham namoyon eta bilgan. Shu ma'noda, o'zbek va qardosh turkiy xalqlar adabiyotlarida mushtaraklik kuzatiladi.

Savollar va topshiriqlar:

- 1.O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti shakllanishiga qanday ijtimoiy-siyosiy omillar ta'sir ko'rsatgan?
- 2.XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi siyosiy jarayonlar o'zbek adabiyotida qanday aks etdi?
- 3.Milliy uyg'onish davrida adabiyot orqali ifodalangan asosiy g'oyalar nimalardan iborat edi?
- 4.Adabiy-estetik omillar bu davr adabiyotida qanday namoyon bo'lgan?
- 5.Jadid adiblarining asarlarida millat va taraqqiyot g'oyasi qanday talqin etilgan?
- 6.Milliy uyg'onish adabiyoti XX asr o'zbek adabiyoti rivojiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

2-mavzu. Yangicha ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish adabiyoti

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy voqelik ta'siri natijasi o'laroq adabiyotdagi ko'p asrlik an'analar evrilishga yuz tutdi. Bu davrga kelib adabiyotda ijtimoiy pafos kuchaya boshladi. Ijtimoiy voqelik badiiy asarlarning asosiy mavzuiga aylandi. Erksiz xalq haqsizlik va mutelikka qarshi bosh

ko'tardi – millat uyg'ona boshladi. Bu davr adabiyoti mazmun-mohiyati bilan chindan ham "milliy uyg'onish adabiyoti" edi. Zero, uning taraqqiyot yo'llari ham o'ziga xos va murakkab edi.

Yevropa va rus ilm-fani, texnikasi Turkiston hayotiga ta'sir etmay qolmadi. Maorifni isloh qilish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Milliy matbuot shakllandi. Millat hayotiga teatr kirib keldi. Adabiyot mundarijasi o'zgarib, unda yangi tur va janrlar paydo bo'ldi. Shakl va mazmunda, g'oya va motivda yangiliklar sezila boshladi.

Har qanday yangilik muayyan zamin asosida yuzaga keladi, albatta. Tabiiyki, badiiy ijoddagi yangilik, novatorlik ham an'ana negizida shakllanadi. An'ana va novatorlik esa hamisha bir-birini taqozo etadi. Ma'lumki, adabiyotga yangilik yangi mavzu va g'oya, til va uslub, real voqelik ta'sirida kirib keladi. Har qanday badiiy asar chinakam badiiylikka erishmog'i uchun an'ana va yangilikni o'zida uyg'unlashtirmog'i lozim. Ijodkor qaysi davrda yashamasin, uning asarlarida an'anaviylik unsurlari bilan bir qatorda o'sha davr, o'sha zamon, o'sha muhit ruhi aks etishi tabiiydir. Mardikorlik voqealariga bag'ishlangan she'rlarning bir qismi an'anaviy aruz vaznida, yana bir qismi esa barmoqda yozilgani ham buning dalilidir. Abdulla Avloniy, Sidqiy Xondayliqiy, Akbariy Toshkandiy, Mulla Murtazo bin Ismoiljon, Javhariy, Lutfulla Olimiy, Anbar Otin, Mutriba, Hayratiy, Tavallo kabi ijodkorlarning aruz vaznida bitgan mardikorlik haqidagi she'rlarini nazardan kechirsak, ularda mazmun tamomila o'zgargani, yangilangani ma'lum bo'ladi. YA'ni vazn va ohang an'anaviy, biroq mazmun va mavzu esa yangi. Mardikorlik mavzuidagi she'rlarda majoziy tasvir o'rmini hayotiy-realistik ifoda, an'anaviy ramzlar o'rmini real shaxs va voqelik talqini egallagani ham buni tasdiqlaydi.

Qulog'imga "Safoxon" u "Iroq" din kelur xo'broq,

Hazin ovoz ila har soridin guftoring, ey, millat, –

deb yozgan edi shoir Sidqiy. Darhaqiqat, millat o'zini millat sifatida tanitishi, o'zligini ko'rsatishi majbur edi. Adabiyot endi xalqning fikr va ko'ngil dunyosiga nigoh tashlash ehtiyojidan

MUNDARIJA

Kirish.....	3
O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik omillari.....	5
Yangicha ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish adabiyoti..	20
Milliy uyg'onish adabiyotida an'ana va novatorlik.....	39
Poetik obraz yangilanishi tamoyillari. Yangi o'zbek she'riyatining maydonga kelishi.....	69
Jadid adabiyotida inson, millat va vatan timsollari.....	88
Jadid adabiyotida ayol obrazi va ayol masalasining badiiy talqini.....	109
Jadid nasrining shakllanishi va taraqqiyot yo'llari.....	119
Jadid adabiyotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi.....	157
XX asr boshidagi adabiy bahslar va ularning adabiy-estetik tafakkur rivojidagi o'rni. Badiiy publitsistikaning shakllanishi va ta komili.....	178
Jadid adabiyotni ilmiy o'rganish bosqichlari. Jadidchilik va jadid adabiyoti ilmiy maktabi. Naim Karimov va Umarali Normatov hayoti va ijodi.....	197
O'zbek jadid adabiyotida Sharq va G'arb madaniyati masalalari. Yangi nasr va uning poetik xususiyatlari.....	212
Kichik nasriy janrlar taraqqiyoti masalalari.....	226
Jadid dramaturgiyasining shakllanishi va badiiy xususiyatlari.....	241
Jadid adabiyotida tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqini.....	274
Mustaqillik davri jadidshunosligi.....	289
Foydalanilgan adabiyotlar.....	300

NODIRA XOLIKOVA

JADID ADABIYOTI

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: D. Toshboltayev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 28.07.2025 y.

Bichimi 60x84 1/16. Offset qog‘ozi. “Times New Roman”
garniturası. Hisob-nashr tabog‘i. 19,625.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 49.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.
+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01